SPEKTAKL SAHNALASHTIRISHDA XATTI-HARAKATNING O‘RNI

F.Turg‘unboyev
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: professor **N.Qobilov**

Annotatsiya: Mazkur maqola “Yangi asr avlodi” nashriyoti qoshida ochilgan “Nur” bolalar kitobi teatr-studiyasining maqsadi, prezidentimiz ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning birinchi va to‘rtinchi bandlari ijrosini ta’minlashga qaratilgan ijodiy izlanishlarga bag‘ishlangan. Asosan, teatr-studiyaning ilk spektakli “Kichkina shahzoda”ning xatti-harakat tahliliga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: teatr-studiya, spektakl, inssenirovka, rejissor, aktyor, obraz, tomoshabin, xatti-harakat, so‘z, monolog, xatti-harakat tahlili.

Аннотация: Данная статья посвящена цели детского книжного театра-студии «Нур», открытого при издательстве «Янги аср авлоди». Кроме того, творческого поиска направленного на обеспечение реализации первого и четвертого пунктов 5 важных инициатив, выдвинутых наш президент. В основном, акцентирован на действенный анализ первый спектакль «Маленький принц».

Аннотация: театр-студия, спектакль, инсценировка, режиссёр, актёр, образ, зритель, действия, слова, монолог, действенный анализ.

Annotation: This article is dedicated to the purpose of the “Nur” children’s book theater-studio, opened under the publishing house “Yangi asr avlodi”. Creative research aimed at ensuring the implementation of the first and fourth points of the 5 important initiatives put forward by our president. Mainly, the first performance of the theater-studio “The Little Prince” is emphasized on the behavior analysis.

Key words: theater-studio, play, impersonation, director, actor, image, spectator, behavior, word, monologue, behavior analysis.

Sen tanada emas, harakatlaringda yashaysan. Sen – bu sening harakatlaring. Boshqa sen yo‘q.

Antuan de Sent-Ekzyuperi

So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan madaniyat va san’at sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor tufayli sohada qator islohotlar amalga oshirilayotgani barchamizga ma’lum. Qabul qilinayotgan qator qaror va farmonlar, xususan, 2020-yil 26-may O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6000-sonli farmonida 15-aprel sanasini “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at xodimlari kuni” etib belgilanishi sohaning barcha vakillari tomonidan xursandchilik bilan kutib olingan bo‘lsa, mana bir yil vaqt o‘tib mamlakatimizda ilk bor bayram sifatida nishonlandi. “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan bir guruh soha vakillari taqdirlandi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari sana munosabati bilan madaniyat va san’at xodimlariga yo‘llagan tabrigida “Nodavlat teatr-studiyalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning intilishlarini rag‘batlantirish maqsadida joriy yildan boshlab eng yaxshi loyiha uchun davlat grantlari ajratiladi” – deb ta’kidladilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, teatr san’atimiz orqali unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimizni turli buzg‘unchi g‘oyalar, ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash ko‘zda tutilgan.

Aytish kerakki, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi nechog‘lik to‘g‘ri va muhim ekanligini barchamiz ko‘rib, yana bir bor guvohi bo‘lib turibmiz.

“Yangi asr avlodi” nashriyoti qoshida ochilgan “Nur” bolalar kitobi teatr-studiyasining maqsadi prezidentimiz ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning birinchi va to‘rtinchi bandlari ijrosini ta’minlashga qaratilgan. Respublikamizda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirayotgan “Yangi asr avlodi” nashriyoti respublika

nashriyotlari orasida birinchi bo‘lib o‘z qoshida teatr tashkil qildi. Bu teatr san’atidagi chinakam yangilik bo‘ldi. Chunki, shu vaqtga qadar hech bir nashriyot o‘z qoshida teatr tashkil etmagan edi. Ochilganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsa-da, teatr ikkita spektakl tayyorlab, tomoshabinlarga taqdim etishga ulgurdi.

“Yangi asr avlodi” nashriyoti qoshidagi “Nur” bolalar kitobi teatr-studiyasi 2022-yil 21-yanvar sanasida fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asari asosida sahnalashtirilgan spektakl bilan ochilgan bo‘lsa, “2-aprel xalqaro bolalar kitobi” kunida rus yozuvchisi Aleksey Tolstoyning “Buratino yoxud oltin kalit” asari asosida sahnalashtirilgan spektaklni tomoshabinlarga taqdim etdilar. Teatr jamoasi shu kungacha bir-biridan qiziqarli qator spektakllar yaratib kelmoqda.

2023-yil 15-aprel “Madaniyat va san’at xodimlari kuni” munosabati bilan teatr-studiyaning ilk spektakli “Kichkina shahzoda” tomoshabinlar e’tiboriga qayta namoyish etildi. Yosh rejissor I.Xomidov tomonidan sahnalashtirilgan spektakl o‘zining badiiy yechim jihatidan puxtaligi, zamonaviyligi, tomoshaviyligi, noan’anaviy yondashuvi bilan tahlilga sabab bo‘ldi:

Fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperi tomonidan yozilgan “Kichkina shahzoda” qissasi rejissor I.Xomidov tomonidan inssenirovka qilindi va sahnaviy asar holiga keldi. Qissa bolalar uchun yozilganiga qaramay, uning xarakteri hayot va inson tabiatiga yaqin. Asar birinchi marta 1943-yil 6-aprelda Nyu-York shahrida nashr etilgan. Asar syujetiga kelsak, uchuvchi Sahroi Kabirga favqulodda qo‘nadi, bu yerda u bir g‘ayrioddiy va sirli bolani – boshqa sayyoradan kelgan Kichkina shahzodani uchratadi. Kichkina shahzoda unga Yerdagi sayohatlari, o‘z sayyorasidagi hayoti, u yerda qoldirib kelgan ajoyib atirguli haqida so‘zlaydi. U sayyorasini tozalashga ko‘p vaqt sarflaydi. Qissaning shu joylari sahnaviy variantga to‘la ko‘chirilgan. Ammo, Kichkina shahzoda koinotning boshqa joylarini o‘rganish uchun uchib ketgani, boshqa bir qancha sayyoralarni ziyorat qilib, ko‘plab g‘alati katta yoshlilar bilan uchrashgani: o‘zini yulduzlarni boshqaruvchisi deb o‘ylaydigan qirol, boshqalar uni maqtashini istagan shuhratparast, ichishdan uyalishini unutish uchun ichuvchi piyonista, doimiy ravishda yulduz sanaydigan ishbilarmon, ko‘p yulduzlarga egalik qilaman deb

o‘ylaydigan va undan-da ko‘prog‘ini sotib olishni xohlaydigan, sayohat hikoyalarini yozadigan, lekin hech qayerga bormaydigan geograf bilan bo‘lib o‘tgan voqealar rejissor tomonidan sahnaviy variantga kiritilmagan. Tahlilimizcha, rejissor spektaklning g‘oyasini ochib berishda xatti-harakat rivoji uchun xizmat qilmaydi deb bilgan sahnalarni kiritmagan. Qissada Kichkina shahzoda geografning maslahati bilan Yerga tashrif buyuradi. Lekin sahnaviy variantda Kichkina shahzoda sirli tarzda yerda paydo bo‘lib qoladi. Buning ortida ham spektaklning umumiy xatti-harakat rivoji ko‘zlangani ko‘rinib turibdi. Yerda Kichkina shahzoda halokatga uchragan samolyot uchuvchisidan tashqari boshqa personajlar (ilon, tulki, gullar) bilan ham uchrashadi va ular bilan muloqotda bo‘lib, muhim narsalarni o‘rganadi.

Qissaning inssenirovka varianti asosan do‘stlik, sevgi va ona yurt kabi o‘lmas mavzularga bag‘ishlangan. Yozuvchi asarda bosh qahramonlardan biriga aylangan bo‘lsa, spektakl rejissori ham sahnaviy asarda bosh hikoyachi bo‘lish bilan bir qatorda asardagi uchuvchi hamdir. Spektakl inssenirovkada qo‘shilgan hikoyachining kirish monologi bilan boshlanadi. Ya’ni, Hikoyachi obrazi - (I.Xomidov) sahnadan emas, biz o‘tirgan tomosha zali markazidan – “Eh, bugungi avlod, bugungi avlod! Bugungi avlod insoniy tuyg‘ulardan mahrum holda yashamoqda. O‘tgan asrda insoniyat urushdan, ochlikdan halok bo‘lganini juda yaxshi bilamiz. Bugungi asrimizda undan ham dahshatliroq urush, undan ham kuchliroq ochlik xavf solmoqda. Ya’ni, ma’naviy ochlik, ma’naviy urush. Chunki qayoqqa qarama kompyuter, internet, telefon, televizor, planshet, gadjet. Bu ketishda hamma narsa robotlashtiriladi. Natijada, dunyodagi 8 milliard odam faqat robotni eshitadi, robotni tushunadi, robot bilan suhbatlashadi, robot bilan dardlashadi, robot uchun qayg‘uradi va oxir-oqibat o‘zlari ham robotga aylanib borishadi. Ko‘rinishi inson, qalbi esa robot… Axir, kitobsiz, adabiyotsiz, san’atsiz, sevgisiz yashab bo‘ladimi? Ey, yangi asr avlodi, keling, bugun ma’nan do‘stlashamiz!” – deya qo‘lida turgan Antuan de Sent-Ekzyuperining Kichkina shahzoda kitobiga razm soladi va “Antuan de Sent-Ekzyuperi – Kichkina shahzoda” deb ovoz chiqarib o‘qiy boshlaydi. Hikoyachi so‘zlarini yakunlab, chiroq o‘chishi bilan sahnada Uchuvchi obrazi – (I.Xomidov) paydo bo‘ladi. “Kutilmaganda samolyotim

buzilib, Sahroyi Kabirga qo‘nishga majbur bo‘ldim. Har qancha urinmay samolyotimni tuzatolmadim. Lekin men bu yerda Kichkina Shahzodani uchratdim” – deya o‘z so‘zini boshlaydi. Buni qarangki, bir vaqtning o‘zida ikki obrazda paydo bo‘lgan I.Xomidov barchani birday lol qoldirdi. Spektakl bir tempdagi xatti-harakatdan, ikkinchi tempdagi xatti-harakatga o‘tdi. Spektakl voqeasi samolyotda yuzaga kelgan muammolarga ko‘chadi, uchuvchi dunyo bo‘ylab sayohat qilib, vaqtincha Sahroi Kabirga tushib qoladi. Uyg‘ongach, Kichkina shahzoda (Sh.Kitobiy) bilan uchrashadi. U uchuvchidan qo‘zichoq rasmini chizib berishni so‘raydi. Uchuvchining esa rassomlik bilan bog‘liq bolalik jarohati bor: u filni yutib yuborgan ilonni chizgan, ammo kattalar uning rasmida shunchaki shlyapani ko‘rgan. Rasm chizishni davom ettirishga rag‘batlantirilmagan uchuvchi Kichkina shahzoda buyurtma qilgan ishni chizishga qiynaladi, hijolat chekadi, bir nechta variantda qo‘zichoq rasmini chizib beradi. Bular shahzodaga yoqmaydi. Oxir-oqibat bolaga quticha chizib beradi va ichida qo‘zichoq bor deydi. Qo‘zichoq rasmda ko‘rinmasa-da, bola fantaziyalariga berilib, rasmdan xursand bo‘ladi. Bu sahna kattalar ulg‘ayganida va o‘zidagi bola holatini unutganida, sehrli xayoliy olamni idrok etishdagi qiyinchiliklarga duch kelishini ochib beradi. Spektaklda “Kichkina shahzoda” kattalar unutgan oddiy narsalarning qiymatini ko‘rsatadi.

Spektakl xatti-harakati rivojlanib borar ekan, Kichkina Shahzoda yer sayyorasida hech odamlarni uchrata olmaydi. Lekin adolatsizliklarga, yovuzliklarga, jumboqlarga, o‘z zaxri bilan barham beruvchi Ilonni (H.Fayzullayev) uchratadi. Uning sovuq tanasi, jumboqli so‘zlari Kichkina Shahzodani bir zum o‘yga soladi. Kichkina Shahzoda yo‘lida davom etar ekan, chamanzordagi bir-biridan go‘zal Gullarga (N.Ahmadjonova, L.Mirzaliyeva) duch keladi. Ular bilan tanishib, quvlashib-quvnashar ekan, Kichkina Shahzoda bir narsani anglab yetadi. Dunyoda yagona deb bilgan, jondan ortiq suygan guli afsuski yagona emas ekan. Spektakl xatti-harakati shu zaylda davom etar ekan, uning yo‘lidan Tulki (R.Xoldorov) chiqadi. Tulki bilan do‘stlashib ancha narsalarni o‘rganadi, ko‘p hayotiy narsalarni anglab yetadi. Jumladan, Tulkining – “Odamlarning hozir vaqti yo‘q, ular hamma narsani magazindan sotib olishadi. Eh, afsuski do‘st sotadigan magazin yo‘q-da; Odamlar bir haqiqatni unutdi, ammo sen hech qachon

yodingdan chiqarma: kimniki qo‘lga o‘rgatgan bo‘lsang, uning taqdiriga hamisha javobgarsan” – degan do‘stona maslahati sabab, nihoyat Kichkina Shahzoda o‘z sayyorasiga qaytishi lozimligini, Guliga javobgar ekanligini tushunib yetadi. O‘z sayyorasiga qaytish uchun u, ilonni yoniga chorlaydi. Uning zaxridan foydalanadi. Ilon Kichkina Shahzodaning bo‘yniga changal solib, zaxrini sochar ekan, tomoshabin beixtiyor to‘lqinlanadi. Ayniqsa bolalar, nigohini Kichkina Shahzodadan uzmas edi. Voqealar rivoji avj nuqtaga yetib, Kichkina shahzoda qaror qabul qilib bo‘lganda, sahnada yangi voqea xatti-harakati boshlanadi. Ya’ni, spektakl so‘nggida sahnaga o‘z samolyotini yurg‘azishga muvaffaq bo‘lib, quvonch bilan kirib kelgan Uchuvchi Kichkina Shahzodaning ahvolini ko‘rib uni qutqarib qolishga harakat qiladi. Lekin Kichkina Shahzoda buni rad qiladi va safarga, olis safarga otlanganligini, o‘z sayyorasiga ketayotganligini takrorlar ekan, sahnadagi uchuvchi hikoyachiga aylanadi. “Kichkina Shahzoda hech qachon o‘lmaydi. Men bilaman u o‘z sayyorasiga qaytib ketgan, u bizning oramizda, sizning oldingizga kimdir kelib do‘stlashmoq uchun qo‘l cho‘zdimi, bilingki, u Kichkina Shahzoda. Shunday insonni uchratsangiz menga ham habar bering” – deya spektaklga yakun yasaydi.

Asar muhiti, rejissorning traktovkasi qahramonlar nutqiy xarakterlarini yaralishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki rolning “mag‘zi” shu jihatlardan kelib chiqib topilishi va bu “mag‘iz” nutq xarakterini belgilashi haqiqatdir. [1. 6-b.]. E’tibor jihati, barcha qahramonlarning nutqi ustida chuqur izlanishlar olib borilgan.

Aktyor doimo sahna hayotini yaratishda eng muhim komponentdir. Sahna asarining badiiy obrazini yaratish jarayonida u bir vaqtning o‘zida material, vosita va jarayon natijasi – ya’ni, rolning o‘ta badiiy obrazidir. Aktyordan ijro vaqtida nafaqat matn va partnyoriga e’tibor qaratishni, balki tomoshabin uchun ta’sirchanlikni oshirishda sahnaviy improvizatsiyani qo‘llash talab etiladi. [2. 25-b.] Spektakl davomida aktyorlar tomonidan qo‘llanilgan improvizatsiyalar ham tahsinga loyiq.

Spektakl voqealari rejissor tomonidan bir-biriga zanjir kabi bog‘langanligi, undagi xatti-harakatlar aktyorlar tomonidan aniq bajarilgani bois, ta’sirchan tus oldi va tomoshabinlarni his-hayajonga berilishi, kulishi, yig‘lashiga sabab bo‘ldi. Haqiqatdan

ham asarning bosh qahramoni hech qachon o‘lmaydi. U bizni atrofimizdagi haqiqiy do‘stlik, sevgi, ona yurtning qiymati haqida o‘ylashga taklif etadi. Kichkina shahzoda – hammamizning ichimizdagi mavjud bola. Spektakl yosh bolalar uchun ibrat sifatida qanchalik zarur bo‘lsa, bolalarcha orzu qilishni to‘xtatgan kattalar uchun ham shunchalik zarurdir. Shuni yodda tutishimiz kerakki, asar yozilgan paytda Ikkinchi jahon urushi davom etayotgandi. Urush davrida esa asardagi har qanday umid uchquni, xayolot yoki yangi hayot orzusi o‘sha paytda yashaganlar uchun juda ko‘p narsani anglatar edi. Bugungi axborot xuruji avj olgan, talato‘pli zamonamizda ham dolzarb asar ekanligini his etgan teatr-studiya jamoasi mazkur asarni taqdim etib, yoshlar tarbiyasida umuminsoniy g‘oyalar qadri, inson qalbiga oliyjanob fazilatlar, ezgu his-tuyg‘ularni singdirish, jamiyatni birlashtirish va taraqqiy ettirish, xalqni, vatanni dunyoga tarannum etishdagi teatr san’atining o‘rni va nufuzini ko‘rsatib berishdi. Umid qilamizki, “Nur” bolalar kitobi teatr-studiyasi xalqimizga qiziqarli, mulohazali yana ko‘plab spektakllar taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov R. Talaba-aktyorlar bilan nutqiy xarakter ustida ishlash usullari // Madaniyat chorrahalari. – Toshkent: 2022. № 4, 4-8-b.

2. Xomidov I. Diplom oldi spektakli ustida ishlash jarayonida dramaturg, rejissor va aktyor uyg‘unligi // Madaniyat chorrahalari. – Toshkent: 2023. № 2, 24-27-b.